

O‘ZBEKISTONDA JISMONIY TARBIIYA VA SPORT BO‘YICHA MUTAXASSISLARNI QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH BORASIDAGI ISLOHOTLAR

ILHOMJON TURSUNALIYEV

rektor, professor, Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti

ZOKIR RASULOV

ilmiy ishlar va xalqaro aloqalar bo‘yicha prorektor, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti

ORALBAY UTENOV

ilmiy ishlar va ilmiy pedagog kadrlar bilan ishlash bo‘limi boshlig‘i, pedagogika fanlari nomzodi, Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekistonda jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish borasidagi islohotlar va uning ilmiy faoliyatdagi natijalari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: bilim, ko‘nikma, malaka, trener, tajriba, kasbiy mahorat.

Jahon amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, sport sohasida trenerlarning kasbiy-psixologik tayyorgarligini takomillashtirish, ta‘lim muassasalarida sport trenerlarining kasbiy-psixologik tayyorgarligini oshirish, ularni o‘qitish va malakasini oshirishning metodik tizimini takomillashtirishning ilg‘or pedagogik va psixologik uslubiy tizimini ishlab chiqish ishlari hamda sport trenerlarini tayyorlashning yangi texnologiyalariga bo‘lgan ehtiyoj yanada kuchaymoqda.

Mamlakatimizda sport trenerlarining kasbiy tayyorgarligi doimiy o‘zgarib borayotgan sharoitda ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganib, ularni jismoniy tarbiya va sport oliygohlarida ta‘lim olayotgan bo‘lajak trenerlarning kasbiy psixologik tayyorgarligi ishlarida nazariy va amaliy, metodik yondashish hamda kasbiy psixologik tayyorlashning tuzilishi va uning metodikalarini takomillashtirish, trenerlik faoliyatida zarur bo‘ladigan kasbiy bilim, malaka va ko‘nikmalarni aniqlash masalalari tadqiq etilgan.

Muhtaram Prezidentimiz tomonidan “Jamiyatimizda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, aholining, ayniqsa, yosh avlodning jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug‘ullanishi uchun zamon talablariga mos shart-sharoitlar yaratish hamda jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish”ga yo‘naltirilgan keng ko‘lamli ishlarni amalga oshirishda kasbiy masalalarga alohida to‘xtalib o‘tilgan va shu kabi muhim vazifalar belgilandi.



O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 26-sentabrdagi 278-son qaroriga muvofiq, O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya instituti huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi sifatida tashkil qilingan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 19-fevraldagi PQ-2133-son qarori bilan tasdiqlangan “Sog‘lom bola yili” Davlat dasturining 81-bandi asosida Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimida soha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimi shakllanishidagi dastlabki bosqich bo‘ldi.

“Sog‘lom bola yili” Davlat dasturi ijrosi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 2-dekabrda “Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni ilmiy-metodik ta‘minlash, qayta tayyorlash va

Sport ilm-fanining dolzarb muammolari

ularning malakasini oshirishning zamonaviy tizimini yaratish to'g'risida"gi 327-sonli qarori qabul qilindi. Mazkur qaror bilan O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya instituti huzuridagi Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni ilmiy-metodik ta'minlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish markazi tashkil etildi. Natijada jismoniy tarbiya va sport sohasida faoliyat yuritayotgan mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishga ixtisoslashgan ta'lim muassasasini tashkil etilishi bilan yangi tizim shakllantirildi.


O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 15-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport davlat qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-2779-son qarori jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirishga zamin yaratdi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 31-maydagi "O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya instituti huzuridagi Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni ilmiy-metodik ta'minlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish markazi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi 329-sonli qarori qabul qilinishi tizimni takomillashtirishning navbatdagi bosqichini belgilab berdi. Mazkur qaror bilan markaz sportchilarni tayyorlashning barcha darajalarida o'quv-mashg'ulot jarayonini ilmiy-metodik ta'minlashni, olimpiya zaxiralari kollejlarning, sport maktablarining rahbar kadrlari, instruktor-metodistlari hamda trener-o'qituvchilar tarkibini, shuningdek jismoniy tarbiya va sport faoliyati yo'nalishlari bo'yicha oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlovchi va ularning malakasini


oshiruvchi ixtisoslashtirilgan ilmiy-metodik va ta'lim muassasasiga aylantirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-martdagi "O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligini tashkil etish to'g'risida"gi PF-5368-sonli Farmonida O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya instituti huzuridagi Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni ilmiy-metodik ta'minlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish markazining Vazirlik tasarrufiga o'tkazilishi, Nukus, Samarqand va Farg'ona shaharlarida uning filiallarining tashkil etilishi mazkur tizimni takomillashtirishning mutlaqo yangi bosqichini belgilab berdi. Mazkur farmon orqali respublikaning barcha hududlaridagi jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislar Nukus, Samarqand, Farg'ona filiallariga qamrab olindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-martdagi PF-5368-sonli Farmoni ijrosi yuzasidan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 14-avgustda "O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligi huzurida Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni ilmiy-metodik ta'minlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish markazi faoliyatini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 658-sonli qarori qabul qilindi.

Qarorga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligi huzurida Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni ilmiy-metodik ta'minlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish markazi tashkil etildi. Markazda maktabgacha ta'lim tashkilotlarining jismoniy tarbiya instruktorlari, umumta'lim maktablarining jismoniy tarbiya fani o'qituvchilari, akademik litseylarning jismoniy tarbiya o'qituvchilari, kasb-hunar ta'limi jismoniy





tarbiya o'qituvchi (kafedra mudir)lari, oliy ta'lim muassasalarining jismoniy tarbiya o'qituvchi (kafedra mudirlari, dekan, dekan o'rinbosar)lari, sport ta'limi muassasa (ROSMM, IOZMI, OSMM, OMSTIDMI, IBO'SM, BO'SM)larining rahbar kadrlari, instruktor-metodistlari, maxsus fan o'qituvchilari va trener-o'qituvchilari, jismoniy tarbiya va sport sohasidagi nodavlat sport tashkilot (federatsiya, uyushma, klublar, sog'lomlashtirish markaz)larining trener, trener – instruktorlarining malakasini oshirish belgilandi. Shuningdek, Davlat xavfsizlik xizmati, Milliy gvardiya, Mudofaa vazirligi va Ichki ishlar vazirligi, Davlat bojxona qo'mitasi tizimidagi tashkilotlarda faoliyat ko'rsatayotgan jismoniy tarbiya o'qituvchilari, trener, trener – instruktorlari hamda O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotining jismoniy tarbiya va sport mutaxassislari Markazda malakasini oshirish izchilligi ta'minlangan integrallashgan tizim shakllantirildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 15-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasi hukumatining ayrim qarorlariga mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportni qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillash-tirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek, ba'zilarini o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblash to'g'risida"gi 32-son qarori asosida "sport faoliyatini yakunlagan sportchilar trenerlik faoliyati bilan shug'ullanishlari uchun sport tibbiyoti, pedagogika va psixologiyasi bo'yicha 3 oylik (oliy ma'lumotli sportchilar uchun) va 6 oylik (o'rta va o'rta maxsus ma'lumotli sportchilar uchun) maxsus o'quv kurslarida, shuningdek, sport hakamligiga tayyorlash (sportning futbol turidan tashqari) bo'yicha 3 oylik (oliy ma'lumotli sportchilar uchun) va 6 oylik (o'rta va o'rta maxsus

ma'lumotli sportchilar uchun) maxsus o'quv kurslarida pulli asosda o'qitilishi" belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 19-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligi huzuridagi Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni ilmiy-metodik ta'minlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish markazi hamda O'zbekiston Respublikasida trenerlik faoliyatlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 918-son qarori asosida, 2019-yil 1-dekabrda boshlab respublikada faoliyat yuritayotgan trenerlarni O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligi huzuridagi Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni ilmiy-metodik ta'minlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish markazi hamda uning filiallari bazasida har 5 yilda attestatsiyadan o'tkazish tizimi joriy etildi.


O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 23-sentabrdagi "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillash-tirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 797-son qarori asosida amaldagi institutda mavjud oliy ta'lim muassasalarining sport faoliyati, jismoniy tarbiya va jismoniy madaniyat yo'nalishi tinglovchilari malaka oshirish kurslari tartibga solingan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-apreldagi "Turizm va sport vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-5054-son qaroriga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligi huzuridagi Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni ilmiy-metodik ta'minlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish markazidan ilmiy-metodik ta'minlash qismi olib tashlangan holda Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxas-

Sport ilm-fanining dolzarb muammolari


sislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish INSTITUTiga aylantirildi.

qaratilmoqda. Ilmiy salohiyat bo'yicha sezilarli darajada o'sishga olib keldi.




O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-iyul kuni "Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 355-sonli qarori qabul qilindi. Mazkur qaror ijrosini ta'minlash bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirilmoqda.


YANGI QAROR LOYIHASI ASOSIDA Kiritilgan o'zgarishlar



Mazkur qaror qabul qilinishi munosabati bilan aytish mumkinki, jismoniy tarbiya va sport sohasida, ayniqsa qayta tayyorlash va malaka oshirish sohasida islohotlar o'z samarasini bera boshladi. Buni birgina ilmiy salohiyat va jismoniy tarbiya va sport sohasi uchun o'quv-uslubiy ta'minot borasida ham ko'rish mumkin. Xizmatlar va sog'lomlashtirish tarmoqlarini rivojlantirishning ilmiy-texnologik vazifalarini hal etish, ilg'or xorijiy tajribadan foydalangan holda sport sohasiga yo'naltirilgan ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borish va ilmiy ishlanmalarni amaliyotga tatbiq qilishga keng e'tibor



O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-iyul kuni "Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 355-sonli qarori bilan institut jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishga ixtisoslashgan davlat ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasasi hisoblanishi belgilandi. Shu bois ilmiy salohiyatni



yaxshilash borasida maqsadli ishlar amalga oshirilmoqda.

Respublikamizdagi ta'limning barcha turlari (maktabgacha, umumiy o'rta, kasb-hunar va oliy ta'lim, shuningdek maktabdan tashqari, sport ta'limi) uchun jismoniy tarbiya va sport sohasi bo'yicha darsliklar va o'quv qo'llanmalar, shu jumladan audio, video va elektron darsliklar, onlayn darslar hamda boshqa turdagi ilmiy-metodik materiallar tayyorlash borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Xulosa o'rnida ta'kidlash mumkinki, respublikamizda jismoniy tarbiya va sport sohasi mutaxassislarining malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash borasida yaxlit kompleks tizim

vujudga keltirildi. Mazkur ishlarning davlatimiz tomonidan qo'llab-quvvatlanayotganligi albatta soha mutaxassislarining inson salomatligini asrash va mustahkamlash, qolaversa, uzoq umr ko'rishning garovi sog'lom turmush tarzi ekanligini anglagan holda jamiyatdagi insonlarning xotirjam va farovon hayot kechirish, har bir oila, mahalla va tuman (shahar)da, maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va oliy ta'lim muassasalarida hamda boshqa tashkilotlarda jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan shug'ullanishni yanada ommalashtirishga keng imkoniyatlar yaratadi.

Аннотация. *Статья освещает реформы, направленные на улучшение системы переподготовки и повышения квалификации специалистов в сфере физического воспитания и спорта в Узбекистане, а также их вклад в научную деятельность в данной области.*

Ключевые слова: *знания, навыки, квалификация, тренер, опыт, профессиональное мастерство.*

Annotation. *This article reveals reforms to further improve the system of retraining and professional development of specialists in the field of physical education and sports in Uzbekistan and their results in scientific activity.*

Key words: *knowledge, skills, qualifications, coach, experience, professional excellence.*

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-oktabrdagi "Sog'lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6099-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/5077667>;

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-noyabrdagi "Sport ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish orqali olimpiya va paralimpiya sport turlari bo'yicha sportchilar zaxirasini shakllantirish sifatini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5279-son qarori. <https://lex.uz/docs/-5713331>;

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-iyuldagi "Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 355-son qarori. <https://lex.uz/docs/-6093267>.